



Jizzax davlat
Pedagogika
universiteti

TARIX FAKULTETI



TARIX va JAMIYAT

JOURNAL 2023



№5

HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ



TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

2023-yil 5-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o'qitish metodikasi

Bosh muharrir: Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,
t.f.n., dotsent.

Bosh muharrir o'rinbosari: Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.

Mas'ul kotib: Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o'qituvchisi

TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G'oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G'ofurov J.I – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o'qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o'qituvchi

Dizayner va sahifalovchi: Axmurodov D.Q

MUSTAQILLIK YILLARIDA USTRUSHONA CHORVADORLARIGA MANSUB YODGORLIKLARNING O'RGANILISHIGA DOIR

F.E. Toshboyev, Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti
J. A. Do'smurodov, JDPU, II bosqich magistranti
E mail: furqat7312@mail.ru Тел: 93-303-46-33;

Annotatsiya: Mualliflar ushbu maqolada shimoliy g'arbiy Ustrushonada mustaqillik yillarida olib borilgani chorvadorlar madaniyatiga oid tadqiqotlar haqida ma'lumot bergan. Bunda G'ulbo, Ko'rpa, Qamish, Bekkeldi, Qoratepa, Sayxonsoy, Chayonli, Xatab, Pshag'arsoy, Jelli g'ulli, Qoratosh I,II, Qulpisar, Xo'jai Serob qabristonlari qisqacha ta'riflangan.

Kalit so'zlar: A.Gritsina, G'ulbo, Ko'rpa, Qamish, Bekkeldi, Qoratepa, M. Pardayev, F. Toshboev, Sayxonsoy, Chayonli, Xatab, Pshag'arsoy.

Аннотация: В данной статье авторы приводят информацию об исследованиях культуры скотоводов, проведенных в годы независимости Узбекистана, в северо-западной Уструшене. Кратко описаны могильники Гульбо, Корпа, Камыш, Бекелди, Каратепа, Сайхонсой, Чайонли, Хатаб, Пшагарсой, Джелли Гулли, Караташ I, II, Гульписар, Ходжаи Сероб.

Ключевые слова: А. Грицина, Гульбо, Корпа, Камыш, Бекельди, Каратепа, М. Пардаев, Ф. Ташбоев, Сайхонсой, Чайонли, Хатаб, Пшагарсой.

Annotation: In this article, the authors provide information about the studies of the culture of pastoralists, conducted during the years of independence of Uzbekistan, in northwestern Ustrushen. The burial grounds of Gulbo, Korpa, Kamysh, Bekeldi, Karatepa, Saikhonsoy, Chayonli, Khatab, Pshagarsoy, Jelly Gully, Karatash I, II, Gulpisar, Khojai Serob are briefly described.

Keywords: A. Gritsina, Gulbo, Korpa, Kamysh, Bekeldi, Karatepa, M. Pardaev, F. Tashboev, Saykhonsoy, Chayonli, Khatab, Pshagarsoy.

Ustrushonaning Turkiston tog'larining shimoliy yonbag'irlaridagi arxeologik yodgorliklar bu yerdagi tarixiy-geografik, xo'jalik-madaniy va etnik belgilarning shakllanishini o'zida yaqqol aks ettirgan. Tog' yonbag'irlari va unga tutash dasht va cho'lliklarda, davrlar mobaynida usti yemirilib silliqlangan va yarim doira shaklida tuproq yoki toshdan ko'tarilgan va ayni paytgacha saqlanib qolgan ko'plab mozorqo'rg'onlar aniqlangan. Bu mozorqo'rg'onlar orqali qadimgi chorvador aholining joylashishi xususiyatlarini aniqlash mumkin.

Keyingi o'n yilliklarda Shimoli-g'arbiy Ustrushonadagi chorvadorlarga oid G'ulbo, Ko'rpa, Qamish, Bekkeldi, Qoratepa, Sayxonsoy, Chayonli, Xatab,

Pshag'arsoy, Jelli g'ulli, Qoratosh I,II, Qulpisar, Xo'jai Serob mozorqo'rg'onlari o'rganildi¹. Воҳадаги Zomin, Xovos va SH. Rashidov tumanidagi mozorqo'rg'onlarning o'rganilishiga тўхталсак. Zomin tumanining Turkiston tizmasi shimoliy yonbag'irlarida ko'plab mozorqo'rg'onlar saqlanib qolgan. Ular Pshag'ar, G'ulbo, SHo'rcha, Achchi, Arja, Mo'g'ol, Beshkuvi, Jaloyir, turkman qishloqlari atroflari, Zominsuv, Jaloirsoy, Turkmansoy, Oqbuloqsoy, Suvyo'qsoy, Chillamozorsoy, Beshbuloqsoy va Yettikechuvsoyning yuqori qismlarida qayd etilgan.

Xovos tumanidagi, Sag'anoq mozorqo'rg'onlari, qadimiy Ustrushona yodgorliklaridan biri bo'lgan Xontepa va uning atrofini, xususan, Sag'anoqtepa manzilgohini o'rganish payti o'rganilgan². Bu katakomba shaklidagi qabrlar bo'lib bu yerda 3 ta mozorqo'rg'on o'rganilgan. Muzorqo'rg'onlar tuxumsimon aylana shaklida bo'lib, uyumi soz tuproqdan ko'tarilgan (4- rasm). Sag'anoq mozorqo'rg'onlarini Kenko'l qabrlari tipining ikki turiga ajratish mumkin. Birinchisi, g'arbdan keluvchi ayvon perpendikulyar tarzda shimol janub yo'nalishida joylashgan lahatga kelib tutashadigin qabrlar bo'lsa, ikkinchi xili esa yo'lakning janubdan shimolga cho'zilib, sharq-g'arb yo'nalishidagi qabr lahatiga perpendikulyar tarzda kelib tutashishidan hosil bo'lgan qabrlar.

F.E. Toshboyev tomonidan Zomin tumanidagi reja asosida (2006-2014 yillarda) o'rganilgan mozorqo'rg'onlardan biri G'ulbo qabristoni hisoblanadi. Bu yerdagi qabrlar katakomba shaklida bo'lib, ustiga aylana shaklda qo'rg'on ko'tarilgan. Deyarli barchasida qabr ayvoni (dromos) g'arbdan sharqqa yoki janubdan shimolga tomon pasayib boruvchi, uzunchoq (ellips) shaklida yasalgan (3-rasm). Ayvon uzunligi 2,60 m eni 1,0-1,20 m, bo'lib u qabr lahatiga tomon torayib borgan. Lahat o'lchami 1,95 x 0,80 m dan, 4,60 x 1,85 m gacha barchasida qisman saqlangan. Lahatga bir va ikki nafar marhumlar boshi asosan, shimolda, yuzi tepaga qaragan holda, ba'zilarida oyoqlari ikki tomonga yoyilgan, "otliq-chavandoz" ko'rinishida dafn etilgan. Qabrdagi jasadlar yonida sopol xurmacha, ko'za, qozon, isiriqdon, zeb-ziynat buyumlari, temirdan yasalgan qilich, kamon o'qi, xanjar, pichoq, hayvonlarning suyaklari kabi buyumlar mavjud. Ularning barchasi eramizdan avvalgi II-I asrlarga oid. Ko'pgina mayitlar dafn marosimida yoqilgan. Ularning suklari, buyumlari va tagidagi qalin kul qatlami hamda qabr devorlaridagi olov izlari, marhumlarning dafn marosimida yoqilganligidan darak beradi. Bu esa ushbu

¹ Toshboyev F.E. Ustrushona chorvadorlarining ant ic davrdagi madaniyati. Toshkent, «TAFAKKUR QANOTI» 2014. – 237 B., Тошбоев Ф.Э.Қадимги Уструшона чорвадорлари маданияти (археологик манбалар асосида). “ФАН ВА ТАЪЛИМ”, Тошкент, 2022. 249 Б., Тошбоев Ф.Э. Взаимовлияние степной и оседлоземледельческой культур Уструшаны в эпоху античности и раннего средневековья // ВЕСТНИК МИЦАИ. Вып. 23. Самарканд, 2016. – С. 88-105.

² Грицина А.А. Изучение курганов в Сырдарьинской области. Ташкент, 2005. –С. 76.

qabr soxiblarining Yevroosiyo dashtlaridan kirib kelgan qabilalar ekanligidan darak beradi.

SH. Rashidov tumanidagi Ko'rupa mozorqo'rg'onlari ham mustaqillik yillarida o'rganilgan. Yodgorliklar ilk bor arxeolog M.H. Pardayev va A.A. Gritsina tomonidan qayd qilingan³. 2009 va 2019 yillarda bu hududda ushbu satrlar muallifi tomonidan dastlabki qidiruv va qazuv ishlari o'tkazilgan. Bu yerdagi mozorqo'rg'onlarni tashqi tuzilishiga ko'ra, ikkiga ajratish mumkin. Birinchi xildagi mozorqo'rg'onlar atrofi va ustiga aylana, tuxumsimon shaklda, ustiga 0,15-0,50 m balandlikda tosh qo'yilgan holda bo'lib, ular qiyalik va toshloq yerlarda joylashgan toshqo'rg'onlar. Ikkinchi xil mozorqo'rg'onlar esa tekis, soz tuproq joyda tuproqdan (xuddi G'ulbo, Sag'onoq mozorg'o'rg'onlari kabi) ko'tarilgan bo'lib, ularning o'lchami katta. Muzorqo'rg'onlar joylashishiga ko'ra uch guruhga bo'lingan⁴.

Mustaqillik yillarida Forish tumanida ham arxeologik izlanishlar olib borilgan. Ulardan Qamish mozorqo'rg'onlari 2016 yilda Jizzax ekspeditsiyasi tomonidan (M.Pardayev, F.Toshboyev, O.Mamirov, A. Xolmatov) Forish tumanida chorvadorlar madaniyatini o'rganishga oid ekspeditsiya uyushtirildi. Izlanishlar asosan, Qamish qishlog'ida olib borilib, qishloqning shimoliy-g'arbiy qismida joylashgan 42 ta mozorqo'rg'onlar qayd qilindi. Bu yerda 3 m x 2 m, 5 m x 6 m yer gorizantidan balandligi 20-40 sm atrofida bo'lgan kichik o'lchamdagi va yirik 10 m x 10 m balandligi 50-80 sm atrofidagi va undan ham katta o'lchamdagi mozorqo'rg'onlar mavjud. Ularning uyumi tosh qatlami va uning ustidan to'liq tuproq bilan ko'tarilgan. Bu yerda 4 ta mozorqo'rg'on ochib o'rganilgan.

Mustaqillik yillarida G'allorol va Baxmal tumanlaridagi mozorqo'rg'onlar ham o'rganilgan. Ulardan Bekkeldi mozorqo'rg'onlari bo'lib, Morguzar tog'ining Baxmal tumanidagi, Kamar vodiysi joylashgan. Bekkeldi qishlog'ini sharq tomondan o'rab turuvchi tog' yonbag'irlarida uncha katta o'lchamda bo'lmagan mozorqo'rg'onlar mavjudligi aniqlangan. Bu yerda qayd etilgan mozor qo'rg'onlar soni 11 ta bo'lib, ularning usti davrlar mobaynida yemirilgan, hozirgi mavjudlari yer ustidan 15-40 sm gacha bo'lgan tepachalar ko'rinishini olgan. Ana shu qoyaning g'arbiy yonbag'ridagi tosh va qumoqlikda joylashgan uchta mozor-qo'rg'on ochib o'rganilgan.

Baxmalsoy mozorqo'rg'oni 2008 yil SH. Rashidov tumanining Baxmalsoy qishlog'ida Ko'ktepa arxeologik ekspeditsiyasining mavsumiy ishchilari (biz o'rganayotgan Jelli g'ulli qishlog'idan 5 km janub)da qadimgi qabrga duch kelishadi

³ Пардаев М.Х., 1992 йил археология қазув таджикотлари тўғрисида Жиззах отряди ҳисоботи. Самарқан, 1993. –Л. 16. ,

⁴ Тошбоев Ф.Э. Кўрпасой мазорқўргонлари // Археологические исследования в Узбекистане 2008-2009 года. №9. Самарқанд, 2012.

va bronza davriga oid, dafn buyumlariga ancha boy qabr o'rganilgan. Qabrda saqlanishi yomon holatdagi, boshi g'arb tomonga qaratib, g'ujanak holda yotqizilgan odam suyaklari qayd qilingan. Mayyitning oyoq va qo'llarida ikkitadan bronzadan yasalgan blakuzuklar bo'lgan⁵. Qabr lahatidan esa bitta qo'lda yasalgan sopol idish va bronza oyna topilgan. Muallifning ta'kidlashicha keyingi tozalashda, qabr o'rnidan mis munchoqlar va bitta kumush isirg'a ham o'rganilgan.

F.E. Toshboyevning yozishicha, Sayxonsoy mozorqo'rg'on katakomba qabrlari tipiga kiradi. Sayxonsoyni o'zini esa, Kenko'l qabrlarining g'arbdan keluvchi dromos perpendikulyar tarzda shimol-janub yo'nalishida joylashgan lahadga joylashgan qabrlar tipiga kiritish mumkin. Qabrda o'rganilgan moddiy manbalar qiyosiy tahlili ularning ancha uzoq vaqt muomalada bo'lganligini ko'rsatadi. Ularga tayanib yodgorlik davriy sanasini eramizdan avvalgi I va eramiz boshlari bilan belgiladik.

Chayonli mozorqo'rg'onlari JDPU professor o'qituvchilari tomonidan 2021 yilda o'rganilgan. Ushbu mozorqo'rg'onlar G'allaorol shahri markasi – Sarbozordan 3 km sharqdagi dashtlikda, Fermer xo'jaligi xududida joylashgan (19- rasm). Bu yerda jami sakkizta mozorqo'rg'on mavjud. O'rganilgan mozorqo'rg'onning o'lchami 43x41 m. balandligi 6 m. Uni biz № 1 mozorqo'rg'on deb belgiladik. Tadqiqotlarning dastlabki kunida yodgorlik katta o'lchamda bo'lganligi uchun uning markazi (o'tov yoki qo'ra uchun tekislab, 0,5 chuqurlikda tuprog'i olingan qismi)dan, 4x23m o'lchamida transheya qazib tushish reja qilindi. Shu asosda qazuv obyektning markazidan janub tarafga qarab boshlandi.

Pshag'arsoysoyni chap tomonida, Xatab qishlog'i shimolidagi tog' yon bag'rida, tog' tepasiga tomon 3 mozorqo'rg'on joylashgan. Asosiy mozorqo'rg'onlar tog' tepasidagi tekislikda bo'lib, bu yerda 14 ta mozorqo'rg'on aniqlandi. 2019 yil kuzgi mavsumda Xatab qishlog'i shimolidagi tog' yon bag'rida (Pshag'arsoydan 60 m balandlikda) joylashgan mozorqo'rg'onida ushbu satrlar muallifi tomonidan qazuv ishlari o'tkazilgan. F.A. Maqsudov tomonidan zamonaviy texnologiyalar asosida olib borilgan izlanishlar natijasida, Qadimgi Ustrushona tog'lik tegralarida ko'chmanchi chorvadorlarning o'ziga xos rivojlangan o'rnashuv an'analari negizida bu hududlar eng kechi bilan eradan oldingi II ming yillikdan beri ya'ni so'ngi 4 ming yil davomida o'zlashtirgani asoslangan⁶.

⁵ Хасанов М. Бахмалсойдан топилган бронза даври топилмалари // «Евроосиё халқлари маданий мероси: замонавий тадқиқотлар, муаммо ва ўрганиш усуллари» мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари (1-қисм). Жиззах 2022. Б.89-92.

⁶ Мақсудов Ф.А. Ўрта асрларда тоғли Уструшона кўчманчи маданияти. Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2020. Б.17. Пардаев М., Фрачетти М., Мақсудов Ф., Пардаев Ш. Археологические исследование на памятнике Ташбулак в 2012 г. // Археологические исследования в Узбекистане 2012 год. Самарканд, 2013.

Shunday qilib, Shimoli-gʻarbiy Ustrushonada oʻrganilgan bu mozorqoʻrgʻonlar materiallari koʻchmanchi chorvadorlarning qabr tuzilishi, dafn marosimlari, diniy-maʼnaviy hayoti va ijtimoiy siyosiy tuzumi haqida umumlashgan ilmiy xulosalar chiqarish imkonini bermoqda. Bundan tashqari toʻplangan manbalar asosida, moddiy ashyolar xususiyati va xronologiyasi, qadimgi davrda Oʻrta Osiyo hududida kechgan migratsiyalar va ularning Ustrushonadagi etnik jarayonlarga taʼsiri haqida ham fikr yuritish mumkin.